



ARTICLE INFO

Received: 09th May 2025

Accepted: 15th May 2025

Online: 16th May 2025

KEYWORDS

Investments, foreign investments, investment attractiveness, economic security, investment security indicators, the state's external debt, macroeconomic stability, banks' capital adequacy, investments in fixed capital, domestic investments, foreign investments, investment volume, inflation rate.

ENSURING INVESTMENT SECURITY AS AN AUTONOMOUS FACTOR IN ENHANCING INVESTMENT ATTRACTIVENESS

Ismailova Nasiba Komildjanovna

Tashkent State University of Economics

Department of "Finance and Financial Technologies"

ismailovank1275@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15430191>

ABSTRACT

The article reveals the content of the concepts of investment security and investment attractiveness, and their relevance for the state. The impact of investment security on the investment attractiveness of the state is studied. In addition, the threats and risks of investment security, the requirements and principles for ensuring the stability of economic and legal guarantees for investors, and the main principles for ensuring a favorable climate for investments are discussed. Furthermore, the article examines the issues of ensuring investment security in the Republic of Uzbekistan at present.

INVESTITSION XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH - INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING MUSTAQIL OMILI SIFATIDA

Ismailova Nasiba Komildjanovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrası

ismailovank1275@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15430191>

ARTICLE INFO

Received: 09th May 2025

Accepted: 15th May 2025

Online: 16th May 2025

KEYWORDS

Investitsiyalar, xorijiy investitsiyalar, investitsion jozibadorlik, iqtisodiy xavfsizlik, investitsion xavfsizlik, investitsion xavfsizlik indikatorlari,

ABSTRACT

Maqolada investitsion xavfsizlik va investitsion jozibadorlik tushunchalarining mazmuni, ularning davlat uchun ahamiyati ochib berilgan. Investitsion xavfsizlikning davlatning investitsion jozibadorligiga ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, investitsion xavfsizlikning tahdidlari va xavflari, investor uchun iqtisodiy va huquqiy kafolatlarning barqarorligini ta'minlash talablari va prinsiplari, kapital kiritish uchun iqlimni ta'minlashning asosiy prinsiplari, hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida investitsion xavfsizlikni ta'minlash masalalari ko'rib chiqilgan.



*davlatning tashqi qarzi,
makroiqtisodiy
barqarorlik, banklarning
kapitallashuv darajasi,
asosiy kapitalga kiritilgan
investitsiyalar, ichki
investitsiyalar, tashqi
investitsiyalar,
investitsiyalar hajmi,
inflyatsiya darajasi.*

Kirish.

Zamonaviy jamiyatning rivojlanish bosqichida investitsiya sohasi yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Investitsion xavfsizlikning mohiyatini o'rganish uning eng muhim xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Mamlakatlar investitsion sohadagi vaziyatni tushunib yetishlari zarur, bu esa ichki va xorijiy investitsiyalardan to'liq va samarali foydalanishni, shuningdek, milliy manfaatlarni amalga oshirish bilan bog'liq iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy kapital ta'siridan himoyalaniшни nazarda tutadi.

Investitsion iqlim bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya resurslarini joylashtirish va samarali foydalanishning umumiy mezonini hisoblanadi. Qulay investitsion iqlim investitsiyalarni samarali va maqsadli tarzda ishlatishiga imkon beradi. Qulay investitsion iqlim mamlakatga kapital importini rag'batlantiradi va investorlar faolligini oshiradi. Agar davlatda qulay investitsion iqlim shakllanmasa, investitsion xavf darajasi oshadi, kapital chiqib ketadi va natijada investitsion faollik sekinlasha boshlaydi.

Investitsion xavfsizlik iqtisodiy tizimning shunday holati hisoblanib, unda mamlakat iqtisodiyotiga yo'naltirilgan barcha investitsiya resurslari himoyalangan bo'ladi, bu esa asosiy va intellektual kapitalni iqtisodiy jihatdan xavfsiz tarzda innovatsion yangilash va qayta tiklashga xizmat qiladi, ishlab chiqarish samaradorligi va natijadorligi, mahsulot sifati hamda aholi turmush darajasining oshishiga xizmat qiladi. Investitsion xavfsizlikning milliy xo'jalik rivojlanishini boshqarishdagi element sifatidagi asosiy maqsadi — barcha subyektlarning uzoq muddatli va barqaror faoliyat yuritish jarayonini ta'minlashdir, shu bilan birga jinoyaviy kapitalga qarshi kurash ham olib borilishi kerak. Investitsion xavfsizlik tizimi investitsiya jarayonining faqat makro darajada emas, balki mezo va mikroiqtisodiy darajalarda ham tartibli amalga oshirilishini ta'minlashi kerak.

Investitsion xavfsizlik — bu iqtisodiy xavfsizlikning tarkibiy qismi hisoblanib, uning eng muhim elementidir. Har qanday davlatning iqtisodiy xavfsizligi barqaror daromad va zaxiralarning mavjudligi bilan tavsiflanadi, bu esa zamonaviy darajada va yaqin kelajakda yetarlicha yuqori hayot darajasini ta'minlash imkonini beradi. Investitsion xavfsizlikka oid masalalarni O'zbekiston iqtisodiy xavfsizligi bo'yicha umumiy masalalardan ajratib ko'rib chiqish zaruriyati quyidagilar bilan belgilanadi:

iqtisodiyotni o'sish va rivojlanish yo'liga olib chiqish bo'yicha dolzarb vazifalar bilan;

➤ innovatsion rivojlanish va import o'rnini bosish muammolarini tezkor hal etish zaruriyati bilan;



- investitsiya tizimining mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati va roli bilan;
- jinoyatchilik bilan bog'liq investitsiyalar sektorining mavjudligi bilan;
- ko'pchilik xorijiy investorlar tomonidan spekulativ manfaatlarning ustunligi bilan;
- o'zining asosiy ahamiyatini yo'qotayotgan sohalarni ko'chirish shaklida O'zbekiston ishlab chiqarishi va ilm-faniga yo'naltirilgan xorijiy investitsiyalarning mavjudligi bilan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Investitsion xavfsizlik masalasini ko'plab olimlar o'z ilmiy ishlarida o'rganib, ushbu tushunchaning turli jihatlarini ochib berganlar. Jumladan, P.Samuelson va V. D. Nordxauser investitsiyalarga: "kelgusida ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun bugungi kundagi iste'moldan voz kechish" — sifatida ta'rif berishadi. Ularning tushunchalariga ko'ra investitsiya moddiy (infratuzilma, asbob-uskunalar, zahiralar) va ijtimoiy (ta'lim yoki inson kapitali, tadqiqot va ishlanmalar, shuningdek sog'liqni saqlash) kapitalga qo'yilmalarni ifoda etadi. Ushbu keltirib o'tilgan ta'rifning afzal tomoni shundan iboratki, mualliflar iste'mol va investitsiya o'rtasidagi teskari bog'liqlik mavjudligini ko'rsatib o'tganlari holda, nomoddiy aktivlarga qo'yilmalarni ham qarab chiqadilar.

O.Svensonning ta'kidlashicha investitsiyaviy xavfsizlik – bu davlatlar iqtisodiyotini ichki va tashqi xavflarga bog'liq bo'lmagan holda rivojlanishi, davlatning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi hamda moliyaviy tarmoqlarni bir maromda rivojlanish holatidir. an, L.S. Orlov investitsion xavfsizlikning nazariy va amaliy masalalarini, shuningdek, ushbu sohada davlat tomonidan tartibga solish tizimini takomillashtirish masalalarini ham ko'rib chiqadi. L.S. Orlovning fikriga ko'ra, "investitsion xavfsizlik – bu milliy iqtisodiy tizimning investitsiya jarayonini samarali tarzda o'z-o'zini qayta ishlab chiqarish qobiliyatidir, bunda asosan mamlakatning jahon hamjamiyatida raqobatbardoshligini saqlab qolish ko'zda tutiladi." S. Naryshkin esa investitsion xavfsizlikni "milliy xo'jalik tizimining iqtisodiyotning barqaror o'sishi va strategik raqobatbardoshligini ta'minlaydigan investitsiya jarayonini shakllantirish qobiliyati" deb tushuntiradi. Shundan kelib chiqib, investitsion xavfsizlik sohasidagi milliy manfaat - iqtisodiyotda multiplikator-akselerator samarasini yuzaga keltiruvchi mexanizmlarni yaratish hamda past inflyatsiya asosida iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash imkonini berish darajasidagi investitsiya oqimini saqlab turishdir.

Tadqiqot metodi.

Maqolada ilmiy mushohada, analiz va sintez usullaridan samarali foydalanilgan. Shuningdek, mamlakat iqtisodiy holatini keskinlashuviga olib keluvchi tahdidlar, ushbu tahdidlarni baholovchi Xalqaro valyuta fondi (IMF), Jahon banki (The World Bank) ning me'yoriy-huquqiy hujjatlarida tavsiya etilgan investitsion xavfsizlik indikatorlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar.

Har bir davlat o'zining investitsion xavfsizligini ta'minlashda, investitsion muhitni yaxshilashi, ya'ni mamlakatda investitsion oqimni ushlab turishi hamda iqtisodiy rivojlanishida past darajali inflyatsiyaga etishish mexanizmini yaratishi lozim. Shundan kelib chiqib, investitsion xavfsizlik sohasidagi milliy manfaat - iqtisodiyotda multiplikator-akselerator samarasini yuzaga keltiruvchi mexanizmlarni yaratish hamda past inflyatsiya asosida iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash imkonini berish darajasidagi investitsiya oqimini saqlab turishdir.



Davlatning investitsion jozibadorligini baholash va uning imkoniyatlarini hisobga olish — investor uchun muhim vazifadir. O'zbekistonda ustuvor vazifa doimiy ravishda investitsion muhitni yaxshilashdir, chunki mamlakat xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilishda qiziqish bildirmoqda. Bu har qanday davlatdan o'zining investitsion siyosatini ishlab chiqishni talab qiladi. Investitsion siyosat xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning noyob yo'nalishlarini belgilaydi, ularni rag'batlantirish tizimini yaratadi va investitsion faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy normalarni o'rnatadi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, dengiz portlariga bevosita chiqish imkoniyatining yo'qligi O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi asosiy geosiyosiy muammodir. Bu muammo investitsiyalar oqomiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Dengiz yo'llariga bevosita chiqa olmaydigan mamlakatlar «berk davlatlar» deb atalib, hozirda jahonda bunday davlatlar 35 ga yaqin. Jahon dengiz yo'llaridan foydalanish uchun kamida ikkita davlat hududi orqali o'tishga majbur bo'lgan davlatlar qatoriga O'zbekiston va Lixtenshteynni kiritish mumkin. Xalqaro tashqi savdo to'lov ballansiga doir ma'lumotlar import qilinadigan tovarlar qiymatida transport xarajatlari berk mamlakatlar uchun ikki baravar yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Xususan, ushbu ko'rsatkich (importdagi transport xarajati) rivojlangan mamlakatlarda 4% ni, rivojlanayotgan mamlakatlarda 7,2% ni, berk davlatlarda esa o'rtacha 14,7% ni tashkil etadi. Eksportda ham shu holatni ko'rish mumkin, ya'ni rivojlanayotgan mamlakatlarda transport xarajatlari 8,7% ni, berk mamlakatlarda transport xarajatlari eksport bo'yicha o'z tushumlarining o'rtacha 17,7% ni tashkil etadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida Evropa, Osiyo va Fors ko'rfazi dengiz portlariga qisqa yo'l bilan chiqishni ta'minlovchi yo'nalishlar bo'yicha yuk tashuvlari amalga oshirilmoqda, shu bilan birgalikda eksport-import yuk tashuvlarini asosan 8 ta koridorlar orqali olib borilishi mumkin. Lekin bu koridorlarni barchasidan foydalanish imkoniyati xavfsizlik nuqtau-nazaridan mavjud emas.

Investitsion muhitni shakllantirishda tahdidlar bir jihatdan, muayyan tashqi manbadan maqsadli ravishda yo'naltirilgan, yoki "bozor munosabatlari o'yini" natijasi bo'lishi mumkin. Bunda, mamlakat iqtisodiy holatini keskinlashuviga olib keluvchi tahdidlar xavfli hisoblanadi. Bu kabi ta'sirlar oqibatida aholining turmush sharoiti og'irlashib, oqibatda jamiyat parchalanishi, iqtisodiy va siyosiy tuzilmalari barqarorligiga putur etishi mumkin. Investitsion xavfsizlikni yanada mustahkamlashda quyida keltirilgan kapital oqimini tartibga solish rejimlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Davlat va davlatlararo kapital oqimlarini tartibga solishda beshta investitsion rejimdan foydalaniladi.

1. Mumkin qadar qulaylik yaratish rejimi.
2. Milliy rejim.
3. Kamsitmaslik rejimi.
4. Adolatli va teng huquqli rejim.
5. Shaffoflik rejimi.

Hozirgi kunda investitsion xavfsizlikni ta'minlashda xorijiy davlatlar iqtisodiyotida keng qo'llaniladigan indikatorlar mavjud bo'lib, biz quyida ushbu indikatorlarni ba'zi birlarini ko'rib chiqamiz.


Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi (%). Davlat asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning hajmi YAIM ga nisbatan 25% dan past bo'lmasligi kerak. Investitsiyalar bu iqtisodiyotning rivojlanishining asosi bo'lib, ularning qanchalik ko'pligi iqtisodiy

munosabatlarning rivojlanganligini, qo'shimcha ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshganligini anglatadi. Jahon ekspertlari bahosi hamda rivojlangan davlatlar amaliyotiga ko'ra (davlatlar iqtisodiyoti qiyosiy tahlil qilinganda) mamlakatlar asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi YAIM nisbatan 22 foizdan past bo'lmasligi kerak.

Chunki belgilangan ko'rsatkichdan, ya'ni 22-25 foizdan past bo'lsa investitsiyaning nafililik darajasini sekinlashtirishi mumkin. Demak, mazkur indikatorning IO1 chegaraviy qiymatini shartli 22 foiz qilib belgilandi. Buning sababi, Germaniya, Fransiya, Tayvan hamda boshqa ayrim davlatlar ekspertlari tomonidan ushbu ko'rsatkich chegaraviy qiymati 22 foiz qilib belgilangan.

2021-yilda 42,0 trln. so'm, 2022-yilda 53,9 trln. so'm, 2023-yilda 67,0 trln. so'mni tashkil etdi. Asosiy kapitalga investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi, chunki ular ish o'rinlarini yaratishga, infratuzilmani modernizatsiya qilishga va mamlakat raqobatbardoshligini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

2024-yilda O'zbekiston Respublikasi kapitalni jalb qilishda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdi. Bu o'tgan yilga nisbatan investitsiyalarning 143,9% ga oshganida namoyon bo'ldi. Jami o'zlashtirilgan mablag'lar hajmi 104,5 trln. so'mni tashkil etdi.




1-rasm. O'zbekisto Respublikasining 2021-2024 yillardagi asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi¹

Mazkur indikator 2021-yilda 5,12 fiozni, 2022-yilda 5,42 foizni, 2023-yilda 5,56 foizni, 2024-yilda 7,18 foizni tashkil qilgan. Demak, O'zbekiston Respublikasida investitsiyaning nafililik darajasi bir oz pastligini ko'rsatmoqda, lekin 2024-yilda ushbu indikator ko'rsatkichi 7,18 foizga ko'tarilganligini ko'rish mumkin.

Davlat qarzining YAIMdagi ulushi (%). 2024 yil yakuniga ko'ra, umumiy tashqi qarz hajmi 64,1 mlrd. dollarni (YAIMga nisbatan 55,7 foiz) tashkil qilib, shundan davlat tashqi qarzi hajmi qariyb 33,9 mlrd. dollar (YAIMga nisbatan 29,5 foiz) hamda korporativ tashqi qarz hajmi 30,2 mlrd. dollarga teng bo'ldi.² XVJning TBQ 6-son qo'llanmasiga muvofiq, davlat tashqi qarzi qoldig'i hisoblangan, lekin to'lanmagan foizlarni ham o'z ichiga oladi.

¹O'zbekiston Respublikasi to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi. <https://cbu.uz/upload/medialibrary/fee/24Q4.pdf> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

²O'zbekiston Respublikasi to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi. <https://cbu.uz/upload/medialibrary/fee/2024Q4.pdf>




2-rasm. O'zbekiston Respublikasining 2021-2024 yillardagi umumiy tashqi qarz hajmi³

Davlatning tashqi qarz hajmi YAIMning 25 foizidan oshmasligi lozim. Bu ko'rsatkich har bir davlatning investitsion xavfsizligini ta'minlanganligiga baho berishda eng muhim iqtisodiy indikatorlardan biri hisoblanadi.

Horijiy ekspertlar tomonidan ta'kidlanishicha, ushbu ko'rsatkich mamlakatning investitsion jozibadorlik darajasini belgilab beradi. Ushbu ko'rsatkichning krizis davriga yaqinlashishi (I1-ga yaqinlashishi) davlatlarda investitsion jozibadorlik darajasini pastligidan dalolat beradi va oqibatda kerakli investitsiyalar kirmasligi natijasida davlatlar iqtisodiy o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi tahliliy natijalarda O'zbekiston Respublikasining umumiy tashqi qarzi keltirilgan. Umumiy tashqi qarz tarkibida korporativ tashqi qarz ham mavjud bo'lib, quyida biz uni alohida ko'rib chiqamiz.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasining 2021-2024 yillarda umumiy tashqi qarzda korporativ tashqi qarzning ulushi⁴

Korporativ (xususiy) qarzlari 4,2 mlrd dollarga oshib, 30,2 mlrd dollarni (YIMga nisbatan 26,2 foiz), davlat tashqi qarzi esa 6,6 mlrd dollarga oshib, 33,9 mlrd dollarni (YIMga nisbatan

³O'zbekiston Respublikasi to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi. <https://cbu.uz/upload/medialibrary/fee/24Q4.pdf> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

⁴O'zbekiston Respublikasi to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi. <https://cbu.uz/upload/medialibrary/fee/24Q4.pdf> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



29,5 foiz) tashkil etdi. So'nggi yillarda davlat tashqi qarzining o'sish sur'ati biroz pasaydi, biroq korporativ (xususiy) qarzlar o'sishi kuzatildi. Korporativ qarzlar asosan davlat banklari va kompaniyalari tomonidan jalb qilinadi.

Mazkur indikatorning chegaraviy qiymati, ya'ni IO1 dunyo ekspertlari tomonidan 25 foiz qilib belgilangan. Biroq, Daniyalik iqtisodchi olim F.Rassondelfning fikriga ko'ra, ushbu indikatorning chegaraviy qiymati (IO1) 35 foiz deb belgilangan. Ya'ni, uning fikriga ko'ra, davlat tashqi qarzining YAIMdagi ulushi 35 foizdan oshsagina. krizis oldi holati deb belgilanadi. Sababi, uning tomonidan davlatlar investitsion jozibadorligini aniqlashda avvalo ishlab chiqarish sur'ati hamda mamlakat tabiiy resurslari inobatga olinishi lozimligi aytib o'tilgan.

Xulosa.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda investitsion xavfsizlikni ta'minlashda etarli ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha belgilangan chegaraviy me'yordan ortib ketmoqda. Shuningdek, investitsion xavfsizlikni ta'minlashda asosan investitsiyalarni sohalarga to'g'ri yo'naltirish lozim. Qolaversa, xorijiy davlatlarning investitsion xavfsizlik holatini chuqur tahlil qilgan holda, ularning ijobiy tomonlarini o'rganish va milliy iqtisodiyot uchun tatbiq etishga moslash lozim.

Birinchidan, mamlakatni investitsiya iqlimi holatini belgilaydigan asosiy ko'rsatkich bo'lgan, bevosita xorijiy investitsiyalar oqimining etarli darajada ko'paymaganligini ko'rsatish mumkin. Investitsion xavfsizlik nisbiy xarakterga ega, chunki iqtisodiy muhit rivojlanayotgan sharoitda barcha tahdid manbalarini aniqlash va beqarorlashtiruvchi omillar mavjudligining mumkin bo'lgan oqibatlarini neytrallashtirish imkoni yo'q. Buni inobatga olgan holda, investitsion xavfsizlik omillarini ikki guruhga bo'lish mumkin: bu — investitsion sohada iqtisodiy xavfsizlikni barqarorlashtiruvchi va beqarorlashtiruvchi omillar. Barqarorlashtiruvchi omillarga investitsion salohiyat va investitsion jozibadorlik kiradi. Investitsion obyektning salohiyati investitsion maqsadlarni amalga oshirish uchun mavjud imkoniyatlarni belgilaydi (tabiiy, moliyaviy, axborot resurslari va boshqalar).

Ikkinchidan, O'zbekiston jahon bozorlaridagi ulushini oshirishga intilmoqda va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarni katta hajmda ishlab chiqarmoqda. Shu munosabat bilan, yaqin yillar ichida mamlakat Jahon savdo tashkilotining to'laqonli a'zosi bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda 280 milliondan ortiq iste'molchiga ega bo'lgan mintaqaviy bozorlar uchun erkin savdo zonalari orqali mahsulotlar eksportini amalga oshirilmoqda. O'zbekistondan Yevropa Ittifoqining «GSP+» kengaytirilgan preferensiyalar tizimi doirasida 6 mingdan ortiq turdagi mahsulotlarni maxsus eksport shartlari asosida Yevropa bozoriga chiqarish imkoniyati yaratilgan. Yevropa Ittifoqi O'zbekistonning GSP+ tizimidagi a'zoligini 2027-yilgacha uzaytirdi

Uchinchidan, hukumatimiz tomonidan Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va o'zaro bog'liqlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mavjud transport yo'laklarini diversifikatsiya qilish orqali O'zbekistonda mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni Janubiy Osiyoga Transafg'on yo'lagi orqali, Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga O'zbekiston — Qirg'iziston — Xitoy temir yo'l yo'nalishi orqali, shuningdek, Janubiy Kavkaz orqali Yevropa davlatlariga olib chiqadigan multimodal transport yo'lagi orqali eksport qilish imkoniyatlari yaratilmoqda. Ko'rilyotgan barcha choralar



mamlakatimizning investitsion jozibadorligini mustahkamlash, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va uning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan.

2024-yil yakuniga ko'ra, to'lov balansida aks etgan amaliyotlar va nooperatsiyaviy o'zgarishlar ta'sirida O'zbekistonning sof xalqaro investitsiyaviy mavqei joriy yil boshiga nisbatan 11 foizga mustahkamlanib, 2025-yil 1-yanvar holatiga 13,7 mlrd dollarga etdi.

Olib borilayotgan islohotlar natijasida yillik eksport esa 30 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Ishlab chiqarish hajmidagi o'sishning 80 foizi maxsus tarmoqlarga to'g'ri keladi. O'zbekiston 2030-yilga kelib aholining yuqori daromad darajasiga erishishni maqsad qilgan bo'lib, hozirda aholi jon boshiga daromad bo'yicha yetakchi bo'lgan mamlakatlardan investorlarni jalb etishga intilmoqda. Jahon miqyosida murakkab vaziyat shakllanayotgan bir paytda, O'zbekistonning xavfsiz va barqaror ish yuritish maskani sifatidagi qiziqarliligi va jozibadorligi investorlar uchun tobora ortib bormoqda.

Taklif va tavsiyalar.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va rivojlantirishda tashqi iqtisodiy omillardan samarali foydalanishga erishish uchun quyidagilarni aytib o'tish joizdir:

1. Korxonalarning moliyaviy ko'rsatkichlari hamda iqtisodiy indikatorlar haqida holis va ishonchli axborot ta'mini hamon yaxshi yo'lga qo'yilgani yo'q. Bu masalani hal qilish uchun muqobil va mustaqil nodavlat axborot agentlarini tashkil qilinishi lozim.
2. O'zbekiston investitsion muhitni takomillashtirish xorijiy kapitalni jalb qilish qulay makroiqtisodiy siyosatni shakllantirish bo'yicha ish olib borish muhim hisoblanadi. Buning uchun inflyatsiya darajasini past darajada ushlab turish, inflyatsiyaning investitsion loyihalarni qiymatini o'sishiga ta'sirini kamaytirish, xorijiy investitsiyalar tarkibida bevosita xorijiy investitsiyalar miqdorini keskin ko'paytirishga ko'proq e'tibor qaratish kerak.
3. Investitsiyalarni real ishlab chiqarish sohasiga, birinchi navbatda xom-ashyoni qayta ishlovchi tarmoqlarga jalb etish lozim, mamlakatimizdagi ommaviy axborot vositalarida sezilarli bo'lgan turli ko'rgazmalar, forumlar va davra suhbatlarini o'tkazish, internet-resurslarda ma'lumot taqdim etishning mavjudligi va qulayligini oshirish kerak.
4. Hududlarni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish, hamda uni tuzatish mexanizmini joriy etish, marketing tadqiqotlarini o'tkazish xizmatini yaratish, Kompetensiyalar markazlarini tashkil etish lozim.
5. Hududda qolgan yosh mutaxassislarni qo'llab-quvvatlashning maxsus shakllarini joriy etish, masalan, maxsus stipendiyalar, grantlar joriy etish kerak.
6. Transport infratuzilmasini rivojlantirish, yo'llar, temir yo'llar, suv yo'llari, aeroportlar, uning mavjudligi va sifatini oshirish lozimdir.

Shunday qilib, yuqorida ko'rib chiqilgan choralar amalga oshirilsa, xududlar iqtisodiyotining rivojlanishiga va O'zbekiston Respublikasining subyektlari (hududlar) o'rtasidagi tafvutning kamayishiga yordam beradi, deb hisoblash mumkin.

References:

1. Нарышкин С. Инвестиционная безопасность как фактор устойчивого экономического развития // Вопросы экономики. 2010. № 5. С. 16–25.
2. Орлов Л.С. Государство и инвестиционная безопасность // Актуальные проблемы экономики и права. 2010. № 3. С. 5–8.



3. Под редакции Е.А. Олейникова. Основы экономической безопасности (Государство, регион, предприятие, личность) – М.: Бизнес-школа «Интел-Синтез», 1997г. – 288 стр.
4. Гапоненко В.Ф., Маргиев З.В. Экономическая и финансовая безопасность как важнейшая функция государства в современных условиях// Вестник Московского университета МВД России. – 2013г.
5. Глазьев С.Ю. Безопасность экономическая. Политическая энциклопедия. М. Мысль. 1999 год. Т 1.
6. NK Ismailova. Issues of providing investment security in Uzbekistan Mejdunarodnyy jurnal gumanitarnyx i estestvennyx nauk. 2019. № 5-4. 122-125str.
7. NK Ismailova. Importance of financial security in financial globalization. Ekonomika i biznes: teoriya i praktika. 2019. № 4-3. 37-40 str.
8. Ismailova Nasiba Komildjanovna. PUBLIC DEBT AND FINANCIAL SECURITY OF UZBEKISTAN. E Conference Zone. 2022/6/11. 107-109.
9. Iqtisodiy xavfsizlik. Ma'ruzalar matni. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi. 2014 yil.
10. O'zbekiston Respublikasi to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi. <https://cbu.uz/upload/medialibrary/fee/24Q4.pdf>.